

RIM IMPERIYASINING ULUG'VOR TARIXI

Turdiyeva Aziza Yo'ldosh qizi

Termiz davlat universiteti, Tarix yo'nalishi, 2-kurs talabalari

Jumayev Mustafo Erkin o'g'li

Ilmiy rahbar: Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21289327>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qadimgi dunyoning eng buyuk davlatlaridan biri bo'lgan Rim imperiyasining vujudga kelishi, taraqqiyot bosqichlari, boshqaruv tizimi, iqtisodiy-madaniy hayoti hamda inqirozga yuz tutish sabablari tarixiy-qiyosiy tahlil asosida yoritilgan. Tadqiqotda respublikadan imperiyaga o'tish jarayoni, Avgust Oktavian islohotlari, "Pax Romana" davrining ahamiyati, harbiy-ma'muriy tuzilma hamda Rim huquqi va madaniyatining jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissassi tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье на основе историко-сравнительного анализа рассматривается становление одного из величайших государств древнего мира — Римской империи, этапы её развития, система управления, экономико-культурная жизнь и причины упадка. Исследованы процесс перехода от республики к империи, реформы Октавиана Августа, значение периода "Pax Romana", военно-административная структура, а также вклад римского права и культуры в мировую цивилизацию.

Annotation: Based on a historical-comparative analysis, this article examines the formation of one of the greatest states of the ancient world — the Roman Empire — its stages of development, system of governance, economic and cultural life, and the causes of its decline. The transition from Republic to Empire, the reforms of Augustus, the significance of the "Pax Romana" period, the military-administrative structure, and the contribution of Roman law and culture to world civilization are analyzed.

Kalit so'zlar: Rim imperiyasi, Avgust Oktavian, Pax Romana, respublika, senat, legion, Rim huquqi, provinsiya, Bizantiya, Buyuk xalqlar ko'chishi.

Ключевые слова: Римская империя, Октавиан Август, Pax Romana, республика, сенат, легион, римское право, провинция, Византия, Великое переселение народов.

Key words: Roman Empire, Augustus Octavian, Pax Romana, republic, senate, legion, Roman law, province, Byzantium, Migration Period

Jahon tarixida Rim imperiyasi kabi uzoq muddat mavjud bo'lgan, keng hududlarni o'z ichiga olgan va insoniyat taraqqiyotiga chuqur iz qoldirgan davlatlar kam uchraydi. Kichik bir shahar-davlat sifatida Tibr daryosi bo'yida paydo bo'lgan Rim mil.avv. VIII asrdan mil. V asrgacha bo'lgan davrda dunyoning eng qudratli imperiyasiga aylandi. Uning tarixi Yevropa, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqning siyosiy, huquqiy, madaniy va til taraqqiyotiga asos solgan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy davlatchilik, huquq tizimi, me'morchilik va hatto ko'plab Yevropa tillari Rim merosiga bevosita bog'liqdir. Rim tajribasini o'rganish orqali davlat boshqaruvi, harbiy tashkilot va ijtimoiy tuzilmaning umumbashariy qonuniyatlari yaxshiroq anglashiladi.

Maqolaning maqsadi, Rim imperiyasining tashkil topishidan qulashigacha bo'lgan tarixiy jarayonni tizimli tahlil qilish va uning boshqaruv, iqtisodiyot, madaniyat sohalaridagi yutuqlarini

yoritishdir. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi: respublikadan imperiyaga o'tish jarayonini o'rganish; Avgust islohotlari va Pax Romana davrini tahlil qilish; imperiya boshqaruv tizimini yoritish; Rim madaniy merosining ahamiyatini ko'rsatish; imperiyaning inqirozga yuz tutish sabablarini aniqlash.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy metod qo'llanildi, bu orqali respublika va imperiya davri boshqaruv shakllari o'zaro solishtirildi. Manbashunoslik tahlili metodi yordamida antik davr muallislari (Tit Liviy, Svetoniy, Tatsit) asarlaridagi ma'lumotlar zamonaviy tadqiqotchilar (Gibbon, Mommzen, Beard) xulosalari bilan qiyoslandi. Shuningdek, tizimli tahlil va xronologik metodlardan foydalanilib, voqealar sabab-oqibat bog'lanishida ko'rib chiqildi. Tadqiqot manbaviy bazasini ilmiy monografiyalar, antik davr yozma manbalari va tarixiy atlaslar tashkil etadi.

An'anaga ko'ra, Rim shahriga mil.avv. 753-yilda Romul tomonidan asos solingan. Mil.avv. 509-yilda so'nggi podshoh haydab yuborilgach, Rim respublika boshqaruv shakliga o'tdi. Mil.avv. III–I asrlarda Puni urushlari, Makedoniya va Suriya bilan bo'lgan janglar natijasida Rim O'rta yer dengizi havzasining aksariyat qismini nazoratga oldi, biroq hududiy kengayish ichki ziddiyatlarni kuchaytirib, respublika tizimini inqirozga olib keldi. Gay Yuliy Sezar diktaturasi va uning o'ldirilishidan so'ng, vorisi Gay Oktavian mil.avv. 31-yilda Aktium jangida g'alaba qozonib, yagona hokimiyatni qo'lga kiritdi. Mil.avv. 27-yilda Senat unga "Avgust" unvonini berdi, shu sana Rim imperiyasining rasmiy boshlanishi hisoblanadi¹.

Avgust respublika institutlarini rasman saqlagan holda, aslida yakka hokimiyat -prinsipat tizimini shakllantirdi. Uning davrida moliya tizimi tartibga solindi va doimiy professional armiya tashkil etildi. Avgustdan boshlab taxminan ikki asr davom etgan nisbatan barqaror davr "Pax Romana" nomi bilan mashhur bo'lib, bu davrda savdo yo'llari xavfsiz bo'ldi, shaharlar va yo'llar faol qurildi. Traian davrida (mil. 98–117) imperiya deyarli 5 million kv. km hududga yetdi.

Imperiya boshqaruvi markaziy hokimiyat va provinsiyalar boshqaruvidan iborat edi. Armiyaning tayanchi legionlar bo'lib, ular chegara hududlarida joylashtirilgan va harbiy, muhandislik vazifalarini bajargan. Rim huquqi (Ius Civile va Ius Gentium) keyinchalik butun Yevropa huquq tizimlarining nazariy asosiga aylandi.

Iqtisodiyot qishloq xo'jaligi va savdoga asoslangan bo'lib, Misr imperiyaning "non ombori" vazifasini bajargan. Lotin tili keyinchalik zamonaviy roman tillarining shakllanishiga asos bo'ldi. 313-yilgi Milan edikti xristianlikka erkinlik berdi, 380-yilda esa u davlat dini deb e'lon qilindi.

III asrdan boshlab siyosiy beqarorlik, iqtisodiy inqiroz va german qabilalarining bosimi kuchaydi. 395-yilda imperiya G'arbiy va Sharqiy qismlarga bo'lindi; 476-yilda Odoakr so'nggi G'arbiy Rim imperatorini taxtdan ag'darishi bilan G'arbiy Rim imperiyasi tugadi.

Olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, Rim imperiyasining barqarorligi ko'p jihatdan markazlashgan boshqaruv, professional armiya va yagona huquqiy tizimga bog'liq bo'lgan. Ayrim tadqiqotchilar (Gibbon) imperiya qulashining asosiy sababi sifatida ichki axloqiy va siyosiy tanazzulni ko'rsatsa, boshqalari (Beard) buni ko'proq iqtisodiy va harbiy omillar bilan bog'laydi. Mommzen esa provinsiyalarning markazdan uzoqlashuvi va mahalliy hokimiyatning kuchayishini alohida ta'kidlaydi. Ushbu qarashlarni qiyoslash shuni ko'rsatadiki, imperiyaning inqirozi yagona sababga emas, balki siyosiy, iqtisodiy va harbiy omillarning o'zaro ta'siriga bog'liq murakkab jarayon bo'lgan.

¹. Scarre C. The Penguin Historical Atlas of Ancient Rome. — London: Penguin Books, 1995. — 144 p.

Shuningdek, Pax Romana davrining barqarorligi mutlaq emasligini ta'kidlash lozim: imperiya chekkalarida mahalliy qo'zg'olonlar davom etgan, bu esa "Rim tinchligi" tushunchasining ma'lum darajada mafkuraviy xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Rim huquqi va madaniy merosining zamonaviy Yevropa tsivilizatsiyasiga ta'siri esa tadqiqotchilar o'rtasida deyarli bahssiz tan olingan xulosa hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Rim imperiyasi qariyb besh asr davomida (mil.avv. 27 — mil. 476) jahon tarixida teng keluvchisi kam bo'lgan qudratli davlat sifatida mavjud bo'ldi. Avgust islohotlari va Pax Romana davri imperiyaga uzoq muddatli barqarorlik bag'ishlagan bo'lsa, siyosiy, iqtisodiy va harbiy omillarning birgalikdagi ta'siri uning inqirozga yuz tutishiga olib keldi. Rim huquqi, me'morchiligi va davlat boshqaruvi tajribasi esa keyingi asrlar davomida jahon tsivilizatsiyasi rivojiga asos bo'lib xizmat qildi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Gibbon E. The History of the Decline and Fall of the Roman Empire. — London: Strahan & Cadell, 1776–1789. — 4356 p.
2. Моммзен Т. История Рима: в 5 т. — М.: Наука, 1997.
3. Beard M. SPQR: A History of Ancient Rome. — London: Profile Books, 2015. — 606 p.
4. Scarre C. The Penguin Historical Atlas of Ancient Rome. — London: Penguin Books, 1995. — 144 p.
5. Светоний Г.Т. Жизнь двенадцати цезарей. — М.: Наука, 1993. — 375 с.
6. Тит Ливий. История Рима от основания города: в 3 т. — М.: Ладомир, 2002.
7. Тацит К. Анналы. Малые произведения. История. — М.: Ладомир, 1993. — 736 с.
8. Машкин Н.А. История древнего Рима. — М.: Высшая школа, 2006. — 751 с.
9. Cary M., Scullard H.H. A History of Rome down to the Reign of Constantine. — 3rd ed. — London: Macmillan, 1975. — 690 p.
10. Qadimgi dunyo tarixi: darslik / mas'ul muharrir. — Toshkent: O'zbekiston, 2018. — 288 b.